



O'QITUVCHILARNI TAYYORLASHDA KREATIV FIKRLASH KONIKMALARINI RIVOJLANTIRISH JARAYONINING AMALDAGI HOLATI VA TAKOMILLASHTIRISH USULLARI

Abdiyeva Shodiyona Yodgor qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (BT) yo'nalishi
1-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15645840>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-June 2025 yil

Ma'qullandi: 07-June 2025 yil

Nashr qilindi: 12-June 2025 yil

KEY WORDS

*kreativ fikrlash, o'qituvchi
tayyorlash, pedagogik
innovatsiyalar, tanqidiy fikrlash,
interaktiv metodlar, kreativ muhit,
zamonaviy ta'lim, ijodiy
kompetensiya..*

ABSTRACT

Mazkur maqolada o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning amaldagi holati va bu yo'nalishdagi mavjud muammolar tahlil etilgan. Kreativ fikrlash zamonaviy ta'lim tizimida pedagoglarning asosiy kompetensiyalaridan biri sifatida qaralmoqda. Tadqiqotda hozirgi o'quv dasturlari va metodik yondashuvlar kreativ fikrlashni rivojlantirishga qanchalik xizmat qilayotgani o'rganiladi. Shuningdek, innovatsion pedagogik texnologiyalar, loyihaviy faoliyat, muammoli vaziyatlar asosida ta'lim, interaktiv metodlar orqali o'qituvchilarda ijodiy fikrlashni shakllantirishning samarali usullari ko'rsatib o'tiladi. O'rganilgan materiallar asosida ushbu jarayonni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqola, zamonaviy pedagogik yondashuvlar orqali o'qituvchi shaxsida kreativlikni shakllantirish masalasiga ilmiy-nazariy yondashuv asosida yechim taklif qiladi.

Hozirgi zamonaviy ta'lim tizimi shaxs sifatida har tomonlama yetuk, mustaqil fikrlaydigan va ijodiy yondasha oladigan pedagoglarni tayyorlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Bu esa, o'z navbatida, o'qituvchilarda yangicha fikrlash va kreativ ko'nikmalarni shakllantirishni davr talabi sifatida qaralishiga olib kelmoqda. Kreativ fikrlash deganda, mavjud muammoni yangicha, ilg'or va noodatiy yondashuvlar orqali hal eta olish layoqati tushuniladi. O'qituvchi nafaqat o'quvchilar uchun, balki butun jamiyat uchun ibratli ijodkor shaxs bo'lishi lozim. Shu boisdan, pedagog kadrlarni tayyorlashda ularning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ustuvorliklardan biri hisoblanadi. O'zbekistonda Prezident farmonlari va Hukumat qarorlarida ta'lim sifatini oshirish, innovatsion yondashuvlarni keng joriy qilish, kreativ fikrlaydigan mutaxassislarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, "Ta'lim to'g'risidagi qonun" hamda "Ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish strategiyasi" bu yo'nalishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda kreativ tafakkur ta'lim jarayonida alohida o'rin tutmoqda. U yangi g'oyalarni ilgari surish, shuningdek,

muammolarga yangicha qarash bilan ularni samarali hal etish imkonini beradi. Mamlakatimizda olib borilayotgan izchil islohotlar natijasida shaxsning har tomonlama yetukligini ta'minlash, uning manfaatlarini amalga oshirish, farovon yashashi uchun zarur sharoitlar yaratish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda interfaol ta'lim usullaridan foydalanish orqali o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yuzaga kelmoqda. Ushbu maqolada pedagogik faoliyatda kreativ fikrlashning dolzarbligi, hozirgi holati, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari atroficha tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Turli olimlarning nazariy qarashlariga ko'ra, kreativ insonda motivatsiya va faoliyat o'zaro bog'langan bo'lib, bu holat kasbiy xulq-atvor bilan chambarchas aloqador. Motivatsiya bu shaxsning ichki harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, uning professional faoliyatidagi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi. Shu sababli, kasbiy rivojlanishga erishish uchun aynan motivatsiyaga alohida e'tibor qaratish muhim hisoblanadi. Insonning hatti-harakatiga ta'sir etuvchi ushbu omil doimo harakatda bo'lib, u dinamik xarakterga ega.

MDHga oid ilmiy tadqiqotchilar L.S. Vigotskiy, A.N. Leontev, D.B. Elkonin, O. Vasilchenko, E. Melkumova, V. Miretskaya, M. Suxomlinova va E. Emmanuellar shaxs ijodkorlik salohiyatining rivojlanishiga oid nazariy asoslarni chuqur o'rganib chiqqan. Xorijlik olimlardan esa E.P. Torrance, K. Rogers, J. Purnell, P. Roberts, A.M. Galligan va Sh. Tatsuno kabilar ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, shaxsning individualligi va ijodiy imkoniyatlarini namoyon etish borasidagi izlanishlar bilan ajralib turadi.[1; 184,189-b]

Mutaxassislar va psixologlar ta'kidlashicha, ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish inson tafakkuriga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va shu jarayonda metakognitiv qobiliyatlar, samarali muloqot qilish, o'zini anglash, shuningdek muammoni hal etish kabi muhim ko'nikmalar shakllanadi. Bundan tashqari, insonning hayotdagi yutuqlari ta'limdagi muvaffaqiyati, kelajakdagi kasbiy erishuvlari va jamoatchilik orasidagi nufuzi ham bevosita kreativ fikrlash salohiyatiga bog'liqdir.

Finlyandiya modeli: Bu davlatda ijodkorlikni rivojlantirish ishlari maktabgacha ta'limdan boshlanadi. Ta'lim jarayoni erkin va ijodiy muhitda, ko'proq loyihaviy yondashuv asosida olib boriladi. O'qituvchilar o'z darslarini mustaqil rejalashtiradi, o'quvchilar esa mavzular tanlovida faol qatnashadi.

Singapur tajribasi: Bu yerda o'qituvchilarni saralashda kreativlik asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Maktablarda maxsus kreativ fikrlash laboratoriyalari tashkil etilgan. Talabalarga dars berishdan avval ularning ijodiy salohiyati treninglar orqali rivojlantiriladi.

AQSh ta'lim tizimi: Liberal ta'lim modeli asosida har bir fan integratsiyalashgan shaklda o'rgatiladi. Design thinking ya'ni g'oya, prototip va sinov bosqichlarini o'z ichiga olgan model asosida ijodiy yondashuv rivojlantiriladi. Fanlararo loyihalar orqali talabalar mustaqil fikrlashga undaladi.[3; 285-b]

Muhokama va natijalar. Kreativ fikrlash bu yangi g'oyalarni ilgari surish, mavjud ma'lumotlarni yangicha talqin qilish, tanqidiy tahlil etish va odatiy bo'lmagan yondashuvlar orqali muammolarni yechishga intilish jarayonidir. Ushbu jarayon ta'lim sohasida o'quvchilar shaxsini har tomonlama rivojlantirish, mustaqil qaror qabul qilish hamda noan'anaviy fikr yuritish qobiliyatlarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Kreativ fikrlash yaratilgan g'oyalarni amaliyotga joriy etishga tayyorlik bilan birga

quyidagi asosiy tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi (1-rasm).



1-rasm. Kreativ fikrlashning tarkibiy qismlari


Kreativ o'qituvchi o'z fani bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi bilan birga, dars jarayonini o'quvchilar faolligini oshiradigan va ularni ilhomlantiradigan usullarda olib boradi. Hozirgi kunda pedagogik oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy ta'lim texnologiyalari, interaktiv metodlar, muammoli o'qitish asoslari bo'yicha bilim berilmoqda. Biroq, amaliyotda ushbu metodikalar ko'plab hollarda kreativ fikrlashni yetarli darajada shakllantira olmayotgani, ayrim hollarda esa an'anaviy usullar ustuvor bo'lib qolayotgani kuzatilmoqda.

Kreativ fikrlashni shakllantirishda mavjud muammolar:

- ❖ An'anaviy yondashuvlarga tayanish o'qituvchilar klassik metodlardan voz kechmasdan, innovatsion topshiriqlarga yetarli e'tibor qaratmayapti.
- ❖ Amaliy mashg'ulotlar yetishmovchiligi talabalarni mustaqil fikrlashga undaydigan amaliy topshiriqlarning kamligi seziladi.

Resurslar tanqisligi Ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan metodik qo'llanmalar va o'quv adabiyotlari yetarli emas. O'qituvchi tayyorlovchilar malakasining pastligi Kreativlikni o'rgatishi kerak bo'lgan o'qituvchilar o'zlari ham bu borada kuchli salohiyatga ega emas. Raqamli texnologiyalardan kam foydalanish Innovatsion vositalardan foydalanish ko'nikmasi hanuz past darajada. Muammoli vaziyat asosida ta'lim olish o'quvchilarga real hayotga yaqin bo'lgan holatlar orqali muammolarni aniqlash, ularni tahlil qilish, takliflar ishlab chiqish va eng optimal yechimni amalda qo'llash imkonini beradi. [5; 184,189-b]

Quyidagi interaktiv metodlar kreativ fikrlashni rivojlantirishda samaralidir (2-rasm).



2-rasm. Interfaol metodlar

Shuningdek, quyidagi zamonaviy platformalar ham ijodiy faoliyatni rag'batlantiradi: Padlet, Canva, Mentimeter, Kahoot, Google Classroom kabi. Ular orqali mustaqil ijodiy topshiriqlar, interfaol testlar, g'oya almashinuvi, vizual materiallar yaratish, komiks, video, podkastlar tayyorlash mumkin.

Kreativ fikrlash darajasini baholash vositalari:

- ❖ Portfolio- talabalar tomonidan bajarilgan ijodiy ishlar to'plami
- ❖ Refleksiya daftarlari - har bir mashg'ulotdan keyingi tahliliy yozuvlar
- ❖ Tanqidiy fikrlash testlari -savol-javob shaklida o'rganish
- ❖ O'zini o'zi baholash varaqalari- mustaqil tahlil asosidagi yondashuv

XULOSA. Agar ushbu taklif va tavsiyalar o'quv jarayonida qo'llanilsa yuksak natijalarga erishish mumkin.

- ❖ Pedagogik ta'limda "Kreativ fikrlash asoslari" fanini joriy etish;
- ❖ O'qituvchilarni tayyorlashda muammoli holatlarga asoslangan metodlarni keng qo'llash;
- ❖ Raqamli platformalardan ijodiy topshiriqlar yaratishda faol foydalanish;
- ❖ Metodik materiallar va resurslar bazasini kengaytirish;
- ❖ Kreativ pedagoglar tajribasini ommalashtirish;
- ❖ Malaka oshirish kurslari orqali kreativ ko'nikmalarni rivojlantirish;
- ❖ O'zbekiston ta'lim tizimiga mos kreativlikni baholash mezonlarini ishlab chiqish[8; 443,448-b]

Zamonaviy pedagogik faoliyatda kreativ fikrlash muhim kompetensiyalardan biri sifatida e'tirof etiladi. O'qituvchilarning ushbu ko'nikmalarini rivojlantirish nafaqat ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi, balki mustaqil fikrlaydigan va yangilik yarata oladigan yosh avlodni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli, kreativ fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar, zamonaviy texnologiyalar, treninglar va maxsus o'quv kurslarini ta'lim tizimiga keng joriy etish dolzarb hisoblanadi. Ushbu maqola esa pedagoglarni tayyorlovchi muassasalar uchun nazariy asos va amaliy yo'nalishlar sifatida foydalanish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tilakova, M., & Qoraev, S. (2020). Recommendations for students 'creative ability development. *Academic Research in Educational Sciences*, 1 (4), 184-189.
2. Abdusalilova, S. A., & Qorayev, S. B. (2020). The Role Of Pedagogical Technologies In The Formation Of Students' Scientific Outlook. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 7(03), 2020.
3. Барышева Т.А., Жигалов Ю.А. Психолого-педагогические основы развития креативности. СПб, 2006. -285с
4. Закирова Ф. М., Позилова Ш. Х. Креативное обучение на курсах повышения квалификации преподавателей информатики высших образовательных учреждений //Science for Education Today. 2018. Т. 8.-№. 3. С. 23-36.
5. Тилакова, М., & Қораев, С. (2020). Ўқувчилар креативлик қобилиятларини ривожлантириш бўйича тавсиялар. *Academic Research in Educational Sciences*, 1 (4), 184-189.
6. Ғофуров Шерали. Фанларни ўқитишда табақалаштирилган таълим технологиясини жорий этиш масалалари. Таълим технологиялари, *Science for Education Today* 2022. 45-50
7. Qorayev, S. B., & Janbayeva, M. S. (2021). Boshlang'ich sinf o'qish darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish. *academic research in educational sciences*, 2(4), 149-153.
8. Abdiyeva Shodiyona Yodgor qizi (2025). Pedagogik qobiliyatlarni shakllantirishda innovatsion yondashuvlar. *IQRO INDEXING*, 14(02), 1215-1219